Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KO‘P FUNKSIYALI ERKIN IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY JIHATDAN TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Abdumalikova Busalima Abduvali qizi
“Menejment” fakulteti 2-kurs talabasi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon miqyosida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) faoliyat yuritayotgan 140 dan ortiq davlatlar ichida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan AQSh tajribasi va uning iqtisodiy o‘sish jarayonlariga ta’siri tahlil qilingan. Bugungi kunda AQShda EIZlarning umumiy soni 266 tani tashkil etib, ularning asosiy qismini tashqi savdo hududlari (TSH) tashkil etadi va bu ko‘rsatkich barqaror ravishda ortib bormoqda. Mamlakatda mazkur zonalarning qamrov maydoni kengligi sababli, EIZ tizimi tahlil qilinganda, asosan, tashqi savdo hududlari modeli nazarda tutiladi. Vaholanki, AQSh iqtisodiyotida, shuningdek, 1500 dan ortiq xususiy tadbirkorlik zonalari va 200 dan ziyod innovatsion texnoparklardan iborat ko‘p funksiyali institutsional tuzilmalar ham muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Maqolada AQShda tashkil etilgan EIZlarning tarkibiy turlari va strategik maqsadlari tizimli o‘rganilib, ularning hududiy mutanosib rivojlanishni ta’minlash hamda tashqi savdo faoliyatini diversifikatsiyalashdagi o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Erkin iqtisodiy zonalar, savdo, texnopark, moliyaviy imtiyozlar, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, import, export, sanoat zonalari.

DIRECTIONS FOR STRUCTURAL IMPROVEMENT OF MULTIFUNCTIONAL FREE ECONOMIC ZONES IN DEVELOPED COUNTRIES

Abstract: This article analyzes the experience of the United States, which holds the highest share among more than 140 countries worldwide operating Free Economic Zones (FEZs), and assesses its impact on economic growth processes. Today, the total number of FEZs in the US stands at 266, predominantly consisting of Foreign-Trade Zones (FTZs), a figure that continues to grow steadily. Due to the extensive spatial coverage of these zones in the country, the analysis of the US FEZ system primarily implies the Foreign-Trade Zones model. However, the US economy also features highly successful multifunctional institutional structures comprising more than 1,500 private enterprise zones and over 200 innovative technoparks. The article systematically examines the structural types and strategic objectives of FEZs established in the US, highlighting their role in ensuring balanced regional development and diversifying foreign trade activities.

Keywords: Free economic zones, trade, technopark, financial incentives, small business, private entrepreneurship, import, export, industrial zones.

Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

НАПРАВЛЕНИЯ СТРУКТУРНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МНОГОФУНКЦИОНАЛЬНЫХ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В РАЗВИТЫХ СТРАНАХ

Аннотация: В данной статье анализируется опыт США, имеющих наибольшую долю среди более чем 140 стран мира, в которых функционируют свободные экономические зоны (СЭЗ), а также исследуется его влияние на процессы экономического роста. На сегодняшний день общее количество СЭЗ в США составляет 266, основную часть которых образуют зоны внешней торговли (ЗВТ), и этот показатель стабильно растет. Из-за масштабного территориального охвата данных зон в стране, при анализе системы СЭЗ США в основном подразумевается модель зон внешней торговли. Между тем, в экономике США также успешно функционируют многофункциональные институциональные структуры, состоящие из более чем 1500 зон частного предпринимательства и более 200 инновационных технопарков. В статье системно изучены структурные виды и стратегические цели СЭЗ, созданных в США, а также освещена их роль в обеспечении пропорционального регионального развития и диверсификации внешнеторговой деятельности.

Ключевые слова: Свободные экономические зоны, торговля, технопарк, финансовые льготы, малый бизнес, частное предпринимательство, импорт, экспорт, промышленные зоны.

KIRISH: Erkin iqtisodiy zona — bu yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etish maqsadida tashkil etiladigan hududdir. Uni tuzishdan maqsad eng avvalo, mamlakatni yoki alohida olingan hududni strategik rivojlantirishga doir vazifalarini, ya'ni tashqi savdo, umumiqtisodiy, ijtimoiy, hududiy va ilmiy-texnik masalalarni hal qilishdan iborat bo‘ladi. AQShda erkin iqtisodiy zonalar o‘ziga xos xususiyatga ega. Jumladan, AQShning tashqi savdo hududlarida 80 foiz xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar AQShning ichki hududlaridan keltiriladi va o‘z navbatida, 90 foiz ishlab chiqarilgan mahsulot mamlakatning ichki hududlariga yetkazib beriladi. EIZning muhim maqsadlaridan biri – bu ma'lum bir hududdagi iqtisodiyotning rivojlanishiga yoki aniq bir tarmoqning rivojlanishiga turtki berish. Bu EIZlarning tashkil etish o‘ziga xos maqsadida to‘liq o‘z aksini topadi. AQShda EIZlarning dastlabki tashkil etilishi asosida faol rivojlanishi tus olishi bilan alohida ajralib tursada, undagi maqsadlarga o‘xshashlik Buyuk Britaniya davlatidagi EIZlarda mavjud bo‘lgan. Ya'ni XX asrning 80-yillarida keng tashkil qilina boshlagan EIZlar orqali mazkur davlatlardagi depressiv tumanlardagi kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish maqsad qilingan edi. Bu maqsadga erishish uchun, butun mamlakat hududlaridan ko‘ra bu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlarga moliyaviy imtiyozlar va xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun bir

qancha yengilliklar berilgan. Bu rivojlantirish dasturi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorij kapitalini o‘ziga (tashqaridan) jalb qilish uchun tuzilmagan. Xuddi mana shu maqsadlarda kamroq rivojlangan mamlakatlarda ham EIZlar tashkil qilingan, ya'ni rivojlanishdan ortda qolayotgan hududlarda tashkil qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI: Mamlakatimizga investitsiyalarni jalb qilish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonida yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonida 26-maqsad sifatida: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish, investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, “astdan-yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish vazifalari belgilab berilgan.[1]

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining fikricha ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mintaqalarda investitsion jozibadorlikni oshirish yo'nalishlaridn biri bu erkin iqtisodiy va maxsus industrial zonalarni yaratish bilan bog'liq.[2] Sh.I.Mustafaqulov fikriga ko'ra «Erkin iqtisodiy hudud - bu mamlakatning ham imijidir. Erkin iqtisodiy hududlar, hatto yomon faoliyat yuritgan taqdirda ham mamlakatning liberallashuviga xizmat qiladi. Erkin iqtisodiy hudud qaysi mamlakatda, uning qaysi hududida yaratilmasin, u ijtimoiy loyihadir. Hududni yaratish nafaqat hudud uchun qo'shimcha daromadkeltiradi, balki butun mamlakat uchun turli shaklda foydali qaytim beradi.[3]

Rossiyalik iqtisodchi S.M.Vdovinning e’tirof etishicha “Mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar uchun mintaqaning investitsion jozibadorligi mintaqani malakali ishchi va mutaxassislar bilan ta’minlashga bog‘liq. Shu munosabat bilan kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim». Hududiy xususiyatlarga xos investisiyalar jozibadorlikni oshirishda ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta'minoti darajasini yuksaltiradi, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi.[4]

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.https: //lex.uz/docs/5841063

[2] Zaynutdinov Sh.N va boshqalar. Mintaqalarning investisiyaviy jozibadorligini oshirish yo'llari. T.: Iqtisodiyot va ta'lim, 2017.№4-86 b.

[3] Mustafaqulov Sh.I. (2017) Investision muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiyava amaliyot Monografiya. Toshkent. 2017 "Iqtisod-Moliya". - 186 b

[4] Вдовин С.М. Инвестисионная привлекателност как фактор устойчивого развития региона. Экономический анализ: теория и практика. Москва. 41 (392). 2014.-24 с.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Ushbu maqola metodologiyasida tahlil va sintez, ilmiy abstraksiya, umumlashtirish hamda qiyosiy nazariy talqin usullardan foydalanilgan. Tadqiqotning ilmiy asosini mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalari hamda ularning xalqaro miqyosdagi tadqiqotlari tashkil etadi. Bundan tashqari, tadqiqotda statistik ma'lumotlar tahliliga asoslangan real iqtisodiy ko‘rsatkichlar ham hisobga olingan bo‘lib, bu holat tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi hamda ularni amaliy jihatdan qo‘llash imkoniyatini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR: Mavjud qonunchilikka muvofiq Qo‘shma Shtatlarda faoliyat yuritadigan tashqi savdo zonalari umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) hududlar va ixtisoslashgan hududlar (subzonalar)ga bo‘linadi. Bugungi kunda AQShda 253 umumiy maqsadli zonalar va taxminan 400 ta subzonalar mavjud. Umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) zonalar odatda, port va aeroportlar hududida yoki ular yaqinida AQSh bojxona xizmati vakolatlaridan tashqarida joylashgan bo‘ladi. Odatda, umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) tashqi savdo zonasida tovarlarni saqlash uchun ijaraga beriladigan bo‘sh joylar (maydon), har qanday transport vositasi kirish imkoniga ega bo‘lgan distribyutorlik (tarqatish) markazi joylashgan bo‘lishi lozim. Umumiy maqsadlardagi zonalarning faoliyati sohasi mahsulotni qo‘shimcha qayta ishlashsiz saqlashni, saralashni, qadoqlashni o‘z ichiga oladi. Zonalar davlat yoki xususiy kompaniyalar tomonidan boshqariladi. Umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) tashqi savdo zonalari dastlab NyuYork, Nyu-Orlean, San-Fransisko, Oakland, Los- Anjeles va Sietldagi yirik portlarda joylashgan. Yil davomida 1200 ta faol erkin savdo zonalari operatsiyalarida 480 000 dan ortiq kishi ish bilan ta'minlandi. Hududlarga jo‘natilgan yuklarning qiymati 2020-yildagi qariyb 625 milliard dollarga nisbatan 835 milliard dollardan oshdi.

1-jadval AQSH erkin iqtisodiy zonalar bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha ko‘rsatkichlar (mlrd. AQSH dollarda)

Amalga oshirilgan operatsiyalar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Qabul qilingan tovarlar	669.2	793.8	767.0	624.9	835.6
Ombor/tarqatish	259.1	289.8	301.1	283.7	369.8
Ishlab chiqarish	410.1	504.0	465.9	341.2	465.8
Ishlab chiqarish ulushi (foizda)	61	63	61	55	56
Xorijiy holat ma'lumotlari	250.6	296.7	279.4	254.2	293.7
Ombor/tarqatish	136.5	166.8	167.0	165.0	186.9
Ishlab chiqarish	114.1	129.9	112.4	89.2	106.8
Mahalliy ichki holat ma'lumotlari	418.6	497.1	487.6	370.6	541.9
Ombor/tarqatish	122.6	123.0	134.1	118.6	182.9
Ishlab chiqarish	296.0	374.1	353.5	252.0	359.0
Mahalliy ichki holat ma'lumotlari ulushda (foiz)	63	63	64	59	65
Ombor/tarqatish	47	42	45	42	49
Ishlab chiqarish	72	74	76	74	77
Eksportlar	87.1	112.9	111.4	94.2	123.6
Ombor/tarqatish	28.8	39.7	39.6	39.4	47.3
Ishlab chiqarish	8.3	73.2	71.8	54.8	76.3
Tasdiqlangan erkin zonalar soni	262	260	260	261	258
Aktiv erkin zonalar	191	195	193	195	197

Hududlarda qabul qilingan yuklarning qariyb 65 foizi mahalliy statusdagi tovarlarga to‘g‘ri keldi. Erkin savdo zonalari operatsiyalari tomonidan qo‘llaniladigan mahalliy statusdagi tovarlar darajasi - ishlab chiqarish operatsiyalari uchun 77 foiz va ombor tarqatish operatsiyalari uchun 49 foiz - erkin savdo zonalari faoliyati tashqi ma'lumotlar bilan bir qatorda muhim ichki ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan mahalliy operatsiyalarni o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi. Ombor/tarqatish operatsiyalari 369 milliard dollardan ko‘proq mahsulot qabul qildi, ishlab chiqarish operatsiyalari esa 465 milliard dollardan ko‘proq (hudud faoliyatining 56 foizi) qabul qildi. Hududdagi ishlab chiqarish faoliyatini hisobga oladigan eng yirik tarmoqlar farmatsevtika, neftni qayta ishlash, avtomobilsozlik, elektronika va mashinasozlik/uskunalar sohalarini o‘z ichiga oladi.

2- jadval AQSH erkin savdo zonalari ishlab chiqarish yo‘nalishiga olib kirilgan asosiy xorijiy statusli mahsulotlar (mlrd AQSH dollarda)

Asosiy xorijiy statusli mahsulotlar (mlrd AQSH dollarida)				
Ishlab chiqarish				
Neft	20 594	Boshqa	625	elektronika
Farmatsevtika	18 699	Temir/po‘lat	618	
Avtomobil qismlar	13 799	Samolyot/kosmik kerna	600	
Maishiy elektronika	10 624	Iste’mol mahsulotlari	266	
Mashina/uskunalar	7 997	Optik, foto va tibbiy	251	
Avtomobillar	5 818	To‘qimachilik/poyabzal	/	
Elektrotexnikasi				

Kimyoviy moddalar			
Kimyoviy moddalar	1 233	Xushbo‘y moddalar/kosmetika	89
Boshqametallar/minerallar	716	Kengaytirilgan tolali materiallar	78
Neft-kimyo	685	Oziq-ovqat mahsulotlari	76
Plastik/kauchuk	629	Qurollar/o‘q-dorilar	57
		Ichimliklar/spirtli ichimliklar	37

AQSH erkin savdo zonalari ishlab chiqarish yo‘nalishiga olib kirilgan asosiy xorijiy statusli mahsulotlar qatorida neft 20 594 mlrd AQSH dollar qiymatida, farmatsevtika 18 699 mlrd AQSH dollar qiymatida, avtomobil qismlari 13 799 mlrd AQSH dollar qiymatida hamda maishiy elektronika 10 624 mlrd AQSH dollarga teng mahsulotlar eng ko‘p qabul qilingan tovarlar hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, shtatlarda erkin iqtisodiy zonalarning ishlab chiqarish sohasida avtomobil, elektronika va tibbiy mahsulotlarga yo‘nalgan sohalar ulushi asosiy ishlab chiqarishni tashkil etadi. Hozirgi kunda AQSHdagi 50 ta shtatlar orasida Texas, Luiziana, Janubiy Karolina, Kaliforniya, Alabama, Florida, Puerto-Riko, Indiana, Tennessi va Missisipi shtatlari tovar va xizmatlar eksporti bo‘yicha yetakchi 10 shtatlar sanaladi (3-jadval).

3- jadval Mahsulot eksporti bo‘yicha yetakchi shtatlar va yetakchi korxonalar–TOP 10

T/r	Mahsulot eksporti bo‘yicha yetakchi shtatlar	T/r	Mahsulot eksporti bo‘yicha yetakchi zonalar
1.	Texas	1.	Dorchester County, Janubiy Karolina
2.	Luiziana	2.	Brownsville, Texas
3.	Janubiy Karolina	3.	Gramercy, Louiziana
4.	Kaliforniya	4.	Nashville, Tennessi
5.	Alabama	5.	El Paso, Texas
6.	Florida	6.	Harris County, Texas
7.	Puerto-Riko	7.	Liberty County, Texas
8.	Indiana	8.	Dona Ana County, Yangi Mexiko
9.	Tennessi	9.	Los Angeles, Kaliforniya
10.	Missisipi	10.	Palm Beach County, Florida

AQSHdagi yetakchi eksportyor erkin iqtisodiy zonalar qatoriga Texas shtatidagi Brownsville, El Paso, Harris County va Liberty County hududlari, Luizianadagi Gramercy zonasi, Janubiy Karolinadagi Dorchester County, Tennessi shtatidagi Nashville hamda Yangi Meksikodagi Dona Ana County zonalari kiradi. Mazkur zonalar mamlakatning eksport salohiyatida muhim o‘rin egallab, 2024-yilda erkin savdo zonalari orqali amalga oshirilgan eksport hajmi 123 milliard dollardan oshdi.

Erkin iqtisodiy zonalarni muvaffaqiyatli rivojlantirgan davlatlardan biri sifatida Xitoy tajribasi alohida e’tiborga loyiqdir. Xitoy uzoq yillar davomida yopiq iqtisodiy tizimda faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, xalqaro savdoda o‘z mavqeini mustahkamlash maqsadida “islohot va ochiqlik siyosati” asosida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishni boshladi. Ushbu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilib, 1980-yilda Syamen, Shantou, Chjuxay, Shenchjen va Xaynan hududlarida dastlabki maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Mazkur hududlarning tanlanishi ularning xalqaro savdoga yaqinligi hamda Gonkong, Tayvan va Makao kabi iqtisodiy rivojlangan hududlar bilan qulay aloqalari bilan izohlanadi.

Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalar investorlar uchun keng imtiyozlar yaratdi. Jumladan, yangi tashkil etilgan korxonalar foyda solig‘idan ozod qilindi, keyingi yillarda esa kamaytirilgan soliq stavkalari qo‘llanildi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan uskunalarni bojxona to‘lovlarisiz olib kirish imkoniyati yaratildi. Soliq va bojxona imtiyozlari xorijiy investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirib, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishning rivojlanishiga xizmat qildi.

Natijada, Xitoy maxsus iqtisodiy zonalari qisqa muddat ichida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishdi. Xususan, Shenchjen hududi oddiy baliqchilar shaharchasidan mamlakatning eng tez rivojlangan sanoat va texnologik markaziga aylandi. Keyinchalik ushbu muvaffaqiyatli tajriba asosida yana 14 ta qirg‘oqbo‘yi shaharlarda yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Hozirgi kunda Xitoyda 20 dan ortiq yirik erkin savdo zonalari faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda Guangdong provinsiyasi Xitoyning eng yirik ishlab chiqarish va tashqi savdo markazlaridan biri hisoblanadi. Hududning tashqi savdo aylanmasi yuzlab milliard dollarga yetib, eksport tarkibida integral mikrosxemalar, avtomatik ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari hamda elektr jihozlari muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari, AQSH va Yevropa Ittifoqi bilan savdo aloqalari muntazam ravishda kengayib bormoqda.

XULOSA: AQShda tashqi savdo hududlari tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va bojxona xarajatlarini kamaytirish maqsadida tashkil etilgan. Ushbu hududlarda, ayniqsa, avtomobil sanoati uchun zarur bo'lgan metall va ehtiyot qismlar importiga bojxona tariflarining qisqartirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi savdo hududlarining rivojlanishi mamlakat investitsiya muhitining yaxshilanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Xitoy tajribasida esa erkin savdo zonalari yangi iqtisodiy siyosat va tartib-qoidalarni sinovdan o'tkazish platformasi sifatida xizmat qilmoqda. Bu hududlar kompaniyalarga nisbatan erkinroq va liberallashgan iqtisodiy muhitda faoliyat yuritish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli ko'plab xalqaro kompaniyalar o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda erkin savdo zonalarini qulay variant sifatida tanlamoqda.

Dastlab Shanxay va boshqa yirik shaharlardagi erkin zonalar katta muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa, keyinchalik 2- va 3-darajali shaharlardagi zonalar ham iqtisodiy jihatdan jozibador hududlarga aylandi. Bunga ushbu hududlarda yosh va malakali ishchi kuchining mavjudligi, ishlab chiqarish xarajatlarining nisbatan arzonligi hamda qirg'oqbo'yi hududlaridan tashqaridagi yirik mintaqaviy bozorlarga chiqish imkoniyatlari sabab bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni.https: //lex.uz/docs/5841063

2. Zaynutdinov Sh.N va boshqalar. Mintaqalarning investisiyaviy jozibadorligini oshirish yo'llari. T.: Iqtisodiyot va ta'lim, 2017.№4-86 b.

3.Mustafaqulov Sh.I. (2017) Investision muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiyava amaliyot Monografiya. Toshkent. 2017 "Iqtisod-Moliya". - 186 b

4.Вдовин С.М. Инвестисионная привлекателност как фактор устойчивого развития региона. Экономический анализ: теория и практика. Москва. 41 (392). 2014.-24 с.

5.Shernayev A. A., Abduazimova F. A. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga belgilangan imtiyozlarning o'ziga xos xususiyatlari // "Moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami (II qism). –T.: TMI., 2022

6. Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. –T.: IQTISODIYOT,

7. Шухунь Г. Эволюция развития свободных экономических зон в Китае. // Журал “Европейской экономики”.-2013. Том 11 (№2).-С.201

8. Авдокушин Е.Ф. Мехдународные экономические отношения. Учебное пособие.-М.:, 2004.-260 с. 5. Бондарев А.К. Мехдународные экономические отношения: Учебник/ Евдокимов А.И., Бондарев А.К., Дроздов С.М.; Под ред. Евдокимов А.И..- М.: Проспект, 2013.-656 с

9. https://www.trade.gov

10. https://www.tradecommissioner.gc.ca/china-chine/erkin